



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

14.08.2023

212-um-son

## O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida 2023/2024 o'quv yili uchun to'lov-kontrakt shaklida o'qitish miqdorlarini belgilash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 677-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq hamda Adliya vazirligining yuridik texnikumlariga to'lov-kontrakt shaklida o'qitishga qabul qilish jarayonini tashkil etish maqsadida

### BUYURAMAN:

#### 1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida 2023/2024 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bir nafar o'quvchini to'lov-kontrakt shaklida o'qitish miqdori 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida 2023/2024 o'quv yili uchun bir nafar xorijiy fuqaroni to'lov-kontrakt shaklida o'qitish miqdori 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida 2023/2024 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bir nafar o'quvchini tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt shaklida o'qitish miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

#### 2. Belgilansinki:

yuridik texnikum o'quvchilari to'lov-kontrakt miqdorini o'quv yili davomida shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda oyma-oy bo'lib to'lashi mumkin;

to'lov-kontrakt miqdori oyma-oy bo'lib to'lash imkoniyati o'quv yilining birinchi yarmi uchun to'lov-kontrakt miqdorining kamida 50 foizini belgilangan muddatda to'laganlarga taqdim etiladi;

2023/2024 o‘quv yili uchun abituriyentlar tomonidan o‘quv yilining birinchi yarmi uchun to‘lov-kontrakt miqdorining kamida 50 foizi 1-oktabrdan kechiktirmay to‘lanadi.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yuridik texnikumlari direktorlari:

2023/2024 o‘quv yilida tavsiya etilgan abituriyentlar va yuridik texnikum o‘quvchilari tomonidan to‘lov-kontrakt miqdorlarini o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilsin;

Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyini tamomlagan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining 56 va undan yuqori foizlik natijalariga ega bitiruvchilar hamda respublika oliy ta‘lim muassasalarida “yurisprudensiya” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha test sinovlarida ishtirok etib, unda Adliya vazirligining yuridik texnikumlariga kirish test sinovlarini natijalari yuzasidan to‘lov-kontrakt bo‘yicha minimal o‘tish balini to‘plagan, o‘qishga tavsiya etilmagan abituriyentlar joriy yilning 25-sentabriga qadar (shu kuni ham) to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga kirish uchun ariza bilan yuridik texnikumga murojaat qilishi bo‘yicha xabardor qilinishi hamda ushbu abituriyentlarni yuridik texnikumlarga qo‘shimcha qabul bo‘yicha takliflarni Adliya vazirligiga joriy yilning 26-sentabrigacha taqdim etilishini ta‘minlasin.

4. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (S.Mamadjonov) mazkur buyruqni vazirlikning manfaatdor tarkibiy bo‘linmalariga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari Sh.Rabiyev zimmasiga yuklansin.

**Adliya vaziri**



**A.TASHKULOV**

Toshkent shahar